



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

RAQAMLI PEDAGOGIKA VA SUN'IY INTELEKTNING INGLIZ
TILINI O'QITISHDA SAMARALI QO'LLANILISHI

Ravzaxon Akbarova

Namdu dotsenti

Moxinur Abduxalilova Abrorbek qizi

NamDU, Jahon tillari fakulteti talabasi

Email: abduxalilovamoxinur69@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ingliz tilini o'qitishda raqamli texnologiya va sun'iy intellektning tutgan o'rni va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bir necha platforma, ilova va dasturlarning til o'rgatish va o'rganishdagi foydali jihatlari va bu haqida olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Maqolada sun'iy intellektning ingliz tilini o'qitishda samarali qo'llanishi bilan birga ayrim salbiy tomonlari ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli pedagogika, sun'iy intellect, onlayn ilovalar, interfaol texnologiyalar, onlayn tyutor, til o'rgatish.

Abstract: The article provides information about the role and importance of digital technology and artificial intelligence in teaching English. It also analyzes the useful aspects of several platforms, applications and programs in language teaching and learning, and scientists' viewpoints about this issue. The article highlights the effective use of artificial intelligence in teaching English, as well as some negative aspects.

Keywords: digital pedagogy, artificial intelligence, online applications, interactive technologies, online tutor, language teaching.

Аннотация: В статье представлена информация о роли и значении цифровых технологий и искусственного интеллекта в преподавании английского языка. Также анализируются полезные аспекты различных платформ, приложений и программ для преподавания и изучения языка, а также мнения учёных по этому вопросу. В статье освещаются как эффективное использование искусственного интеллекта в преподавании английского языка, так и некоторые его отрицательные стороны.

Ключевые слова: цифровая педагогика, искусственный интеллект, онлайн-приложения, интерактивные технологии, онлайн-репетитор, преподавание языка.

Zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektning (SI) jadal rivojlanishi til o'rganish va o'rgatish jarayonlariga ham o'zining ham ijobiy va salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Raqamli dunyoda yashayotgan hozirgi zamon til o'rganuvchilarni dars mashg'ulotlari davomida diqqatlarini jalb qilish, shuningdek, til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun o'qituvchilar bir qator interfaol texnologiyalar va sun'iy intellektidan to'g'ri va samarali foydalanishni yolg'a qo'ymoqdalar.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Raqamli pedagogika mohiyatan o'qitishni raqamli muhitda tashkil etish, o'quvchi markaziga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llab-quvvatlash va bilim olishni interaktiv tarzda ta'minlashga qaratilgan yondashuv hisoblanadi.. Ingliz tili o'qitish jarayonida bu yondashuv turli multimedia materiallari, onlayn platformalar, video va audio resurslardan foydalanish orqali o'z ifodasini topmoqda. Bu esa o'quvchilarda mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Amaliy jihatdan olganda, bugun ko'plab zamonaviy vositalar ingliz tilini o'qitishda samarali qo'llanilmoqda. Grammarly va Quillbot kabi platformalar yozma nutqni rivojlantirishda va grammatik xatolarni to'g'rilashda, Google Speech-to-Text yoki Elsa Speak platformalari ingliz tilida to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishda va uni rivojlantirishda samarali natijalarga olib keladi. Duolingo ilovasi esa individuallashtirilgan topshiriqlar orqali mustaqil ta'lim olishda muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda ommalashib borayotgan ChatGPT dasturi nafaqat talabalarni erkin muloqot qilishga o'rgatadi, shuningdek, undan onlayn tyutor sifatida ham foydalanib til o'rganish jarayonini yanada tezlashtirish imkoniyati yaratiladi.

OpenAI bosh direktori Sam Altman fikricha, yaratuvchi sun'iy intellekt (generativ AI) ta'lim sohasida sezilarli imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Xususan, ushbu texnologiya o'qituvchilarga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, dars rejalarini har bir o'quvchining ehtiyojiga moslashtirish, darsda qatnashuvlarini monitoring qilish hamda topshiriqlar yuzasidan avtomatik eslatmalar yuborishda yordam beradi. Shu bilan birga, talabalar uchun ham qulayliklar yaratilib, ular xorijiy tillarni samaraliroq o'rganishlari, chekka hududlarda ham masofaviy ta'lim va tyutorlik xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.¹

Yuqorida aytib o'tilgan platforma va ilovalarning foydali jihatlari bilan birga, ayrim salbiy tomonlari ham hisobga olinishi zarur. Raqamli vositalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar va talabalar yetarli darajada raqamli savodxonlik bilimiga ega bo'lishlari zarur. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan ortiqcha foydalanish insoniy muloqotning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bunday texnologiyalarni o'qituvchining pedagogik yondashuvlari bilan uyg'unlashtgan holda qo'llash talab etiladi. Ayrim sun'iy intellekt turlaridan foydalanish jarayonida o'quvchilar uy ishlarini bajartirishi, imtihonlarda esa ulardan imtihon javoblarini olishlari ehtimoli ham yo'q emas. Shu sababli, til o'rganuvchilarga bunday nojo'ya ishlarning yakuni yaxshi bo'lmasligi haqida yaxshilab tushuntirish o'qituvchilardan qat'iy talab qilinadi.

Raqamli pedagogika o'quv jarayoniga yangi yondashuvlarni olib kiradi. Bu borada amerikalik tadqiqotchi Chris Dedening fikricha raqamli pedagogika nafaqat o'quvchilarning qanday bilim olishini, balki o'qituvchilarning o'quv jarayonini tashkil

¹ [Sam Altman Says ChatGPT Is Good for Education: Here Are 4 Lessons From My Student](#) (Inc.com, Jan. 22, 2024, by Peter Cohan).





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

etish va loyihalash usullarini ham tubdan o'zgartiradi². Bu masala ingliz tili ta'limida raqamli vositalardan foydalanish jarayonida ayniqsa dolzarbdir, chunki o'qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki texnologiyalarni samarali uyg'unlashtiruvchi shaxsga aylanadi. Hozirda ko'plab ingliz tili o'qituvchilari darslarini yanada qiziqarli qilish maqsadida Bamboozle, Kahoot va yana shu kabi gamifikatsiya uslublaridan foydalanishmoqda. Bunday texnologiyalardan dars mashg'ulotlarida foydalanish o'tilgan mavzularni mustahkamlabgina qolmay, jarayonni jonlantiradi va uni yanada qiziqarli qiladi. Ko'plab instruktorlar tomonidan tavsiya qilingan ZipGrade ilovasi esa dars mobaynida yechilgan test topshiriqlarini tezroq tekshirishga, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va reytingini aniq o'lchashga ko'maklashadi. Bu kabi texnologik yutuqlar nafaqat ingliz tilini maroqli o'rganishni ta'minlaydi, balki o'quvchilarni bunday vositalardan xabardor, XXI asr talablariga mos shaxslar tarbiyalashda muhim ro'l o'ynaydi. Jean Piaget o'z tadqiqotida shunday degan: "Ta'limning asosiy maqsadi – avvalgi avlodni takrorlovchi emas, balki yangi narsalarni yaratishga qodir ijodkor shaxslarni tarbiyalashdir"³. Bu fikr raqamli pedagogikaning mazmuniga hamohangdir. Chunki texnologiyalar yordamida o'quvchilar faqat bilim emas, balki ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Yaqin yillarda ingliz tilini o'qitishda virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanish kuchayadi. Bu orqali o'quvchilar virtual sayohatlar qilib, real muhitda ingliz tilidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlovchi shaxsiy "raqamli yordamchilar" har bir o'quvchiga alohida o'qituvchi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Raqamli pedagogika va sun'iy intellekt ingliz tilini o'qitishda oddiy qo'shimcha vosita emas, balki butun ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadigan kuchli omil hisoblanadi. Ular yordamida o'qituvchi darsni yanada samarali, interaktiv va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etishi mumkin. Natijada o'quvchi nafaqat til bilimlarini egallaydi, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muammolarni hal qilish va samarali muloqot qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Eng muhimi, sun'iy intellekt va raqamli pedagogika o'qituvchini almashtirmaydi, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, kuchliroq qiladi va pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday ekan, kelajakda texnologiyalarni chuqur anglagan, ularni samarali qo'llay oladigan o'qituvchilar ta'lim sohasida muvaffaqiyat kalitiga ega bo'ladilar. Bunday yondashuv ta'limni faqat natijadorlikka emas, balki shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishiga yo'naltiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni global standartlarga yaqinlashtirish borasida katta qadamlar qo'yildi. Prezidentimiz tashabbusi

² Dede, C. 2008. Ta'lim va o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga ta'sir etuvchi nazariy qarashlar. J. Voogt va G. Knezek (tahr.) *Boshlang'ich va o'rta ta'limda axborot texnologiyalari bo'yicha xalqaro qo'llanma* (43–62-betlar). Springer.

³ Piaget, J. 1999. *Psychology and Pedagogy*. New York: Viking Press.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bilan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi nafaqat davlat boshqaruvi va iqtisodiyotda, balki ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu hujjat asosida maktab, kollej litsey va oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish, dars jarayonini interaktiv va innovatsion vositalar yordamida tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ingliz tili ta’limi sohasida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tobora kengaymoqda. Masalan, ko‘plab umumta’lim maktablarida o‘qituvchilar onlayn platformalar, elektron resurslar, test tizimlari hamda multimediya vositalari yordamida darslarni tashkil etishmoqda. Bu esa o‘quvchilarning tilni tezroq o‘zlashtirishiga, mustaqil izlanishga va o‘z bilimini doimiy ravishda yangilab borishga katta yordam bermoqda.

Shu bilan birga, xalqaro onlayn ta’lim platformalari – Coursera, EdX, Udemy kabi resurslar O‘zbekiston yoshlari uchun yangi ufqlar ochmoqda. Endilikda chet el universitetlari kurslari, ingliz tili mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maxsus mashg‘ulotlar mamlakatimiz talabalari uchun ham ochiq bo‘lib, bu ularga nafaqat til o‘rganish, balki xorijiy tajribani bevosita o‘zlashtirish imkonini bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O‘zbekistonning yosh avlodi raqamli texnologiyalar asrida yashamoqda. Shu sababli ingliz tilini o‘qitishda texnologiyalardan oqilona foydalanish zamon talabidir. Raqamli pedagogika orqali o‘quvchilar nafaqat tilni bilibgina qolmay, balki raqamli savodxon, tanqidiy fikrlay oladigan, global maydonda bemalol muloqotga kirisha oladigan shaxslarga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, J. 1999. Psychology and Pedagogy. New York: Viking Press.
2. Dede, C. 2018. Digital Teaching Platforms. Teachers College Press.
3. Prensky, M. 2001. Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 1–6.
4. Selwyn, N. 2016. Education and Technology: Key Issues and Debates. London: Bloomsbury.
5. Warschauer, M. 2013. Technology and Learning in Language Education. New York: Routledge.
6. Heick, T. 2014. The Future of Learning: Preparing Students for the 21st Century. TeachThought Press.

